Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	



KIMYO SANOATI KORXONALARIDA LEAN PRODUCTION KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Gulbayeva Feruza Islomovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0007-4207-1447

gulbayevaferuza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kimyo sanoati korxonalarida Lean Production konsepsiyasini joriy etishning ahamiyati, uni amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilyotgan natijalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Lean Production'ning asosiy tamoyillari, xorijiy tajriba va mahalliy ishlab chiqarish tizimlari o'rtasidagi tafovutlar, shuningdek, konsepsiyani joriy etishda uchraydigan muammolar ko'rib chiqildi. Maqolada konsepsiyaning samaradorligi va sanoatdagi raqobatbardoshlikka qo'shadigan hissasi asoslantirildi. Yakunda, kimyo sanoatida Lean yondashuvini muvaffaqiyatli tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Industry 4.0, Lean Production, kimyo sanoati, iqtisodiy xavfsizlik, mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article examines the significance of implementing the Lean Production concept in chemical industry enterprises, focusing on its core principles, implementation mechanisms, and anticipated outcomes. The study analyzes the differences between international and local production practices, identifies barriers to implementation, and highlights how Lean Production contributes to operational efficiency and industrial competitiveness. The paper concludes with recommendations for the effective application of the Lean approach in the chemical sector.

Key words: Industry 4.0, Lean Production, chemical industry, economic security, product quality improvement, competitiveness.

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость внедрения концепции Lean Production на предприятиях химической промышленности, а также механизмы её реализации и ожидаемые результаты. В ходе исследования проанализированы ключевые принципы Lean Production, различия между зарубежным и отечественным производственным опытом, а также выявлены основные барьеры внедрения. Обоснована эффективность концепции в повышении производительности и конкурентоспособности предприятий. В заключение представлены предложения по эффективному применению Lean-подхода в химической промышленности.

Ключевые слова: Industry 4.0, Lean Production, химическая промышленность, экономическая безопасность, качество продукции, конкурентоспособность.

KIRISH

So'nggi yillarda ilmiy va amaliy adabiyotlarda Industry 4.0 (I4.0), Lean Production (LP) hamda Circular Economy (CE) konsepsiyalariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Ushbu yondashuvlar sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Lean Production (LP) – bu bilimga asoslangan, mijozga yo'naltirilgan, isrofgarchiliklarni bartaraf etish va doimiy takomillashuv orqali mahsulot yoki xizmat qiymatini oshirishga qaratilgan ishlab chiqarish falsafasi hisoblanadi. Uning asosiy tamoyili – ishlab chiqarish jarayonlarida ortiqcha xarajat va harakatlarni kamaytirish, maksimal daromad va mijoz qoniqishini ta'minlashdan iborat [1].



Bunga qarama-qarshi, Industry 4.0 konsepsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, Industrial Internet of Things (IIoT), Big Data, Cloud Computing va Digital Twins kabi ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali sanoatning raqamli transformatsiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish samaradorligi va integratsiyasi sezilarli darajada oshirilib, jismoniy va raqamli tizimlar uyg'unligiga erishiladi.

Shuningdek, Circular Economy (CE) yondashuvi atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyiliga asoslanib, resurslardan barqaror foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik xavfsiz mahsulot dizayni va resurs aylanishini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Bu model barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan birga, innovatsion yondashuvlar orqali xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish, ishonchli ishlab chiqarish tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu uch yondashuvning uyg'unligi zamonaviy kimyo sanoati korxonalari uchun yuqori samaradorlik, ekologik barqarorlik va global raqobatbardoshlikka erishish imkonini yaratadi. Shu bois, Lean Production konsepsiyasining kimyo sanoatida tatbiq etilishi ayni paytda nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng miqyosda tadqiq etilgan. Jumladan, Shameli-Sendi [2], D.G.Baur [3], N.N.Shultse, Yu.M.Sulejanova [4], R.Persiu [5], A.Stratan va E.V.Budumjan [6] kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida ushbu masalalarni ilmiy asosda tahlil qilganlar.

MDH mamlakatlaridan E.V.Makarova [7], S.N.Bobylev [8], S.N.Kukushkin, N.A.L'vova [9], A.P.Dobroviniskiy [10], A.B.Lachixina [11] va A.A.Petrakovlarning tadqiqotlari moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning makroiqtisodiy jihatlariga alohida e'tibor qaratgan.

O'zbekistonda esa korxonalarni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, N.M.Mahmudov [12], M.A.Ikramov [13], R.Nurimbetov [14], A.U.Burxanov [15], E.X.Mahmudov [16], Sh.N.Muratova [17], A.M.Kadirov [18], Z.N.Qurbonov [19] va F.I.Isayevlarning ilmiy ishlari bu borada muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Biroq yuqoridagi mualliflarning tadqiqotlarida aynan kimyo sanoati korxonalarini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lgan kimyo sanoati korxonalarini chuqurroq o'rganish va ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb va muhim masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda zarur ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar tahlili, sohaga oid statistik hisobotlar va korxonalar faoliyatiga doir ochiq manbalar asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslash va ekonometrik prognozlash usullari orqali tahlil qilinib, ssenariy asosida kelajakdagi rivojlanish ehtimollari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan avtonom va hamkorlikdagi robotlarni JIT amaliyotini qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar sifatida baholash mumkin. Shuningdek, omborxonalaridagi zaxiralar haqidagi real vaqt ma'lumotlarini yetkazib beruvchilar bilan bog'lash uchun IIoT texnologiyalaridan foydalanish Kanban tizimini yetkazib beruvchilar bilan integratsiyalash imkonini beradi.

3-korxonada Industry 4.0 texnologiyalarining Circular Economy (CE) konsepsiyasiga nisbatan aniq qo'llab-quvvatlovchi roli mavjud. Bu yerda additiv ishlab chiqarish (Additive Manufacturing – AM) asosiy texnologiya sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu texnologiya, har holda, kamida uchta CE strategiyasini amaliy qo'llab-quvvatlaydi:

Birinchidan, Reduce strategiyasi AM'ning qoliqlarsiz ishlab chiqarish imkoniyati va bozorga chiqish vaqtini aniq qisqartirishi orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bu esa o'z navbatida, material va vaqt sarfini kamaytirishga olib keladi.

Ikkinchidan, AM texnologiyasida foydalaniladigan plastmassa va metall kukunlar qayta ishlanishi mumkin bo'lib, bu holat Recycle strategiyasini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, Refuse strategiyasi AM orqali sensorlarni alohida ishlab chiqarmay, ularni bevosita elektr komponentlariga chizib chiqarish (printlash) orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bu usul alohida komponent ishlab chiqarish uchun qo'shimcha material sarfini kamaytiradi yoki butunlay bartaraf etadi.

Bundan tashqari, Big Data & Analytics texnologiyalari ham kamida ikkita CE strategiyasini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Jumladan, to'plangan ma'lumotlar yordamida Reduce strategiyasiga mos ravishda sifat



nazorati va vaqtni boshqarish tizimlarini kuchaytirish mumkin. Shuningdek, Big Data asosidagi bashoratli texnik xizmat ko'rsatish (predictive maintenance) jarayonlari Repair strategiyasini amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Lean Production (LP) amaliyotlari va Industry 4.0 texnologiyalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Circular Economy strategiyalarining bir-biriga bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Biroq, ayrim hollarda CE strategiyalarining LP yoki I4.0 texnologiyalarini bevosita qo'llab-quvvatlaydigan shakllari aniqlanmagan.

LP va I4.0 o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ayniqsa, 3-korxona misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Korxona tomonidan ta'kidlanishicha, ishlab chiqarish muhitida integratsiyalashgan axborot almashinuvi mavjud bo'lib, bu I4.0 texnologiyalarining LP amaliyotlariga, jumladan, xodimlar ishtiroki, TPM (Total Productive Maintenance), yetkazib beruvchilarga qayta aloqa tizimlari va LT (Lead Time)ni qisqartirish jarayonlariga kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

LP amaliyoti va CE strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham kuzatilmoqda. Xususan, ayrim LP yondashuvlari CE tamoyillarini, masalan, Reduce va Refurbish strategiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Bu esa LP, I4.0 va CE tizimlari o'rtasida sinergetik ta'sir mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida, O'zbekistonda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi turli omillar (CE strategiyalari, Reduce va Refurbish yondashuvlari, I4.0 texnologiyalari) o'zaro bog'liqligi asosida ekonometrik modellar yordamida 2030-yilgacha prognozlar ishlab chiqildi.

O'zbekistonda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2030-yilgacha turli rivojlanish ssenariylari asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sohaning kelajakdagi rivoji bir qator omillar, jumladan, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish samaradorligiga bog'liq. Shuningdek, ishlab chiqilgan uchta ssenariy – inertsion, optimistik va pessimistik – kimyo sanoatining istiqboldagi o'sish salohiyati va muammolarini aniqlashga yordam beradi.


Inertsion ssenariyga ko'ra, agar mavjud iqtisodiy va sanoat rivojlanish sur'atlari saqlanib qolinsa, 2025-yilda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 46,3 trln so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib borib, 2030-yilga kelib 73,4 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu ssenariyda radikal iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar yuz bermasligi nazarda tutilgan(1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda kimyo mahsulotlari hajmini 2030-yilgacha prognoz ssenariylari, mlrd so'm.

Yillar	Inertsion ssenariy	Optimistik ssenariy	Pessimistik ssenariy
2025	46285,6	53228,4	43508,4
2026	50856,3	58484,7	47804,9
2027	55427,0	63741,0	52101,4
2028	59997,7	68997,3	56397,8
2029	65768,4	75633,6	61822,3
2030	73439,1	84454,9	69032,7

Optimistik ssenariy esa sohadagi islohotlarning samarali amalga oshirilishi, investitsiyalar hajmining kengayishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi orqali yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni ko'zda tutadi. Mazkur ssenariyga ko'ra, 2025–yilda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 53,2 trln so'mga yetib, 2030–yilga kelib 84,5 trln so'mni tashkil etishi mumkin. Bunday holatda eksport hajmining ortishi, ichki bozorda talabning ko'payishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirilishi asosiy rag'batlantiruvchi omillar sifatida qaraladi.

Boshqa tomondan, pessimistik ssenariy iqtisodiy inqiroz, tashqi bozorlardagi beqarorlik yoki sohaga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining kamayishi natijasida rivojlanish sur'atlarining pasayishini ifodalaydi. Ushbu ssenariyga ko'ra, 2025–yilda ishlab chiqarish hajmi 43,5 trln so'mni tashkil etib, 2030–yilga kelib 69 trln so'mga yetishi mumkin. Bu esa iqtisodiy taraqqiyotda mavjud xavf-xatarlar va ehtimoliy muammolarni oldindan hisobga olish zarurligini anglatadi(1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda kimyo mahsulotlari hajmini 2030-yilgacha prognoz ssenariylari (mlrd so'm).

Umuman olganda, kimyo sanoatining o'sish sur'ati ko'p jihatdan iqtisodiy muhit, investitsiya siyosati, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi hamda eksport bozorlaridagi rag'batlantiruvchi omillarga bog'liq. Agar optimistik ssenariy ro'yobga chiqsa, sohada sezilarli o'sish kuzatilishi va O'zbekistonning kimyo sanoati xalqaro miqyosda raqobatbardoshlik darajasini oshirishi mumkin. Ammo inersion va pessimistik ssenariylar ehtimoliy muammolarni ko'rsatib, iqtisodiy siyosatda yanada puxta va tizimli yondashuv zarurligini taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan prognoz ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kimyo mahsulotlari hajmining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari turli rivojlanish yo'nalishlarini aks ettiradi. Optimistik ssenariy bo'yicha, 2025-yilda 53 228,4 mlrd so'mni tashkil etgan ishlab chiqarish hajmi 2030-yilga kelib 84 454,9 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda.

Ineratsion ssenariyda o'sish nisbatan sekinroq bo'lib, 2025-yilda 46 285,6 mlrd so'mdan 2030-yilga kelib 73 439,1 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

Pessimistik ssenariy esa iqtisodiy va tashqi omillarning salbiy ta'siri ostida, 2025-yilda 43 508,4 mlrd so'mni tashkil etgan hajmning 2030-yilga kelib 69 032,7 mlrd so'mga yetishini ko'rsatadi.

Ushbu prognozlar sanoat rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – xususan, investitsion faoliyat, tashqi iqtisodiy aloqalar, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va davlat siyosatining izchilligiga qarab o'zgarishi mumkin.

Kimyo sanoatida Lean Production, Industry 4.0 va Circular Economy konsepsiyalarini integratsiyalash hamda ularni rivojlanish ssenariylari asosida amaliyotga joriy etish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Raqamli texnologiyalarni joriy etish – IoT, Big Data, Cloud Computing va additiv ishlab chiqarishni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash.
2. Lean tamoyillarini kengaytirish – JIT, Kanban va TPM kabi yondashuvlar asosida samaradorlikni oshirish.
3. CE strategiyalarini kuchaytirish – chiqindilarni kamaytirish, resurslarni qayta ishlash va ekologik yondashuvlarni tatbiq etish.
4. Davlat qo'llab-quvvatlashini kengaytirish – eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga soliq, kredit va infratuzilma imtiyozlarini berish.
5. Monitoring va prognoz tizimini yo'lga qo'yish – ishlab chiqarish hajmlarini ekonometrik modellar asosida muntazam tahlil qilish.
6. Ilm va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish – innovatsion ishlanmalarning tez tatbiqini ta'minlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Wumek, Jeyms, Jons, Deniyel. Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. Simon & Schuster, 1996.
2. Shameli-Sendi, Alireza, Rouzbeh Aghababaei-Barzegar, and Mohamed Cheriet. «Taxonomy of information security risk assessment (ISRA).» Computers & Security, 57 (2016): 14–30.
3. D.G. Baur, N.N. Schulze. Financial market stability: A test. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, 19(3) (2009): 506–519.
4. Yu.M. Sulejmanova. Management of Economic Stability of an Enterprise in the Process of its Innovative Development. Journal of Creative Economy (2013): 89–95.
5. R. Perciun, A. Stratan, A. Timush. The methodology of financial stability assessment of Republic of Moldova through macroeconomic indicators. Procedia Economics and Finance (2014): 383–392.
6. E.V. Budumjan. Development of innovative and investment processes as objective need of modernization of industrial manufacture. Scientific Works of Free Economic Society of Russia (2011): 75–80.
7. Makarova E.V. Spetsifika ustoychivosti ekonomicheskoy sistemy regiona. // Materialy III Mezhdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. Penza: RIO PGSXA, 2006.
8. Bobylev S.N., Girusov E.V., Perelet R.A. Ekonomika ustoychivogo razvitiya: uchebnoe posobie. M.: Izd-vo «Stupeni», 2004. – S. 303.
9. L'vova N.A. Finansovaya stabilnost predpriyatiy: metodologiya fundamental'nykh i prikladnykh issledovaniy. Dis. ... doktora ekon. nauk. – Sankt-Peterburg, 2016.
10. Dobroviniskiy A.P. Antikrizisnoe upravlenie organizatsiy: uchebnoe posobie. Tomsk: Izd-vo Tomskogo politekh. un-ta, 2013.
11. Lachikhina A.B., Petrakov A.A. Podkhody i metody upravleniya informatsionnoy bezopasnost'yu v protsesse upravleniya promyshlennym predpriyatiem. // Voprosy radioelektroniki, 2017, №11, S. 48–51.
12. Mahmudov N.M. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash – barqaror iqtisodiy o'sishni muhim shartidir. // Iqtisodiyot va ta'lim, №2, 2017. – B. 7–11.
13. Ikramov M.A. Tashqi iqtisodiy faoliyat siyosatini rivojlantirish tendensiyalari. // <http://www.novapdf.com>
14. Nurimbetov R.I., Ahmedov S.I. Ishlab chiqarish menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: Talqin, 2008. – 112 bet.
15. Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2019. – 160 bet.
16. Mahmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2004. – 208 bet. Allayeva G.J. O'zbekiston Respublikasining yoqilg'i-energetika majmuasi korxonalarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun avtoreferat. – T.: 2021. – 78 bet.
17. Muratova Sh.N. Sanoattarmoqlari mahsulotlarining iqtisodiy-ekologik xavfsizligini ta'minlash uslubi-yatini takomillashtirish ("O'zbekko'mir" AJ misolida). I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun avtoreferat. – T.: 2021. – 81 bet.
18. Kadirov A.M. Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish ("Andijonneft" AJ misolida). I.f.n. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T.: 2019.
19. Qurbonov Z.N., Isayev F.I. Iqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №1, yanvar–fevral, 2017. – B. 1–8.
20. https://www.strategyand.pwc.com/media/file/Oil-Gas-Trends-2018-19_RU.pdf
21. <https://review.uz/oz/post/ximicheskaya-promshlennost-uzbekistana>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
